

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdisamatova Dildora Sobirovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Boshlang'ich ta'limda o'rganiladigan fanlar bo'yicha rejalashtirilgan yangi natijalarda "bilim" omilidan ko'ra "topish", "kashf etish" omili muhimroq sanaladi. Tadqiqotlarga ko'ra, o'quvchining "yuqori bilim olish"i "anglab yetish va tushunish" tushunchalarga nisbatan samarasi kamroq bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodikalarni keng qo'llash samaradorligi xususan, asosiy fanlar metodikasi bo'yicha yangi darsliklar yaratishning an'analari va tajribalariga bevosita daxldor. Yangi darsliklar ko'p axborot berishni emas, o'quvchining o'zi axborot topishini ta'minlanishi kerak. Ya'ni tushuncha mavzuning ichidan "topib olinishi", o'quvchi tomonidan "kashf qilinishi" muhimdir. Boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan metodikalarning yangi joriy etilayotgan metodikalardan farqlanish darajasini ko'rsatuvchi quyidagi omillar mavjud:

-vaqt omili: unga ko'ra o'quvchi yetarlicha qisqa vaqt ichida rejalashtirilgan mavzu bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi, mazkur mavzu atrofida mulohaza qila olishni o'rganishini ta'minlash;

-texnik ta'minlanganlik omili: unga muvofiq, dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchining ishtirokini odatdagi texnologiyalarga qaraganda 5-7 foizgacha kamaytirish;

-baholash omili: bunda o'qituvchi bolalarni mulohaza jarayonidagi faolliklariga, bilishdagi fikrlash qobiliyatlariga qarab baholaydi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, innovatsion metodikalarning mohiyatli turi quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- mazmun va undagi mantiqning o'zgarishi. Bu ko'rinishdagi innovatsiyalar mavzularni boshqacharoq tarzda qayta guruhlash, "oldinga intiluvchi ta'lim", muayyan mavzu bo'yicha o'quv materiallarining kengaytirib borilishi, muayyan mavzu bo'yicha o'quv materiallarining qisqartirib borilishi, fanlar bo'yicha Namunaviy dasturning yangi bo'limlar va mavzular bilan to'ldirilib borilishi, mualliflik dasturlarining to'ldirib borilishi, o'quv fanlarini yangiliklari bilan to'ldirib boriladigan qo'llanmalardan foydalanib borish, o'quv dasturiga putur yetkazmagan holda ayrim mavzulardan voz kechish kabi amaliy tadbirlar qo'llaniladi;



- boshlang'ich ta'limni amalga oshirishdagi tarkibiy qismiga bo'ladigan yondashuvlarni umumlashtirish va universallashtirish. Innovatsion metodikalar mohiyatli turining ushbu ko'rinishi asosan amaliy ko'rinish kasb etadi. Bunda tushunchalarning o'quvchi tomonidan qabul qilinishiga e'tibor qaratiladi. Yangi kiritilayotgan tushunchalar to'liq o'zlashtirilgandan so'ng mazkur tushunchalar qatnashgan mashqlar bajarish amaliyoti mazkur metodikaning asosiy qismini tashkil qiladi. O'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilarning tasavvurlariga mos tahlil talab mashqlar tizimini ishlab chiqishi kerak. Bajarilishi lozim bo'lgan mashqning matni shunday tuzilishi kerakki, unda kichik yoshli o'quvchilarga notanish so'zlar yoki tushunchalardan bitta ham bo'lmasligi kerak. O'quvchilar faoliyatini baholash mezonida mashqlarning to'g'ri bajarilishi qatorida o'quvchining fikrlash tarzi, tahlil miqyosi va tarzlari ham to'liq hisobga olinishi lozim.

- kichik yoshli o'quvchilarga topshiriq berish davomida o'qituvchi ongli tarzda mashqlarning shartini o'zgartirilgan tarzda bayon qiladi. Berilgan topshiriqdagi shart nimadan iborat va nimani topish talab qilinayotganligini aniqlash o'quvchining o'ziga havola qilinadi. Tajribali o'qituvchilar amaliyotida aynan bitta mashqning turli talqinlarda bayon qilingan dalillar uchraydi. Faqat mantiqan fikrlashga, mashqlarning mohiyatini tahlil qilishga uringan o'quvchilargina o'qituvchi maqsadini aniq topganligi qayd etilgan. Ushbu metodikaga o'xshash uslublar o'tgan asrning to'qsoninchi yillarida ham ayrim o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan.

Xususan, har bir o'qituvchi topshiriq berib, o'zi namuna sifatida ishlab ko'rsatgan va mazkur mashqni bajarishning boshqa usullarini topishni o'quvchilarning o'zlariga havola qilgan. Bu usulning takomillashgan ko'rinishlari haligacha pedagogik amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinmoqda;

- boshlang'ich ta'limning shaxsga yo'naltirilganlik mohiyati va uning soddalashtirilishi. DTS malaka talablari asosida ishlab chiqilgan metodik innovatsiyalarni amaliyotga keng joriy etish uchun "ta'lim mohiyati" tushunchasi keng ma'noda o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishi lozim.

Maktablarda takomillashtirilgan boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi munosabati bilan barcha o'qituvchilar uchun zamonaviy boshlang'ich ta'lim vazifalarini bajarish bo'yicha ta'lim texnologiyalari va boshlang'ich ta'lim strategiyasini tanlash masalasi dolzarflik kasb etdi. Mazkur ta'lim strategiyasi va texnologiyasi shaxsga qaratilganlik va salomatlikni asrash omilini hisobga olgan holda:



-bolalarning individual o'ziga xosligini rivojlantirish;
-o'quvchilarning yosh omili, psixologik va fiziologik omillar bo'yicha individual o'ziga xosligining hisobini yuritish;
-tashkiliy shakllarning xilma-xilligini va har bir o'quvchining individual o'ziga xosligini (iqtidorli bolalar, imkoniyati cheklangan bolalarni hisobga olgan holda) hamda ijodiy potentsial, qiziqishlar doirasi, o'quvchilar o'rtasida o'zaro aloqalarning shaklini hisobga olib borish;
-o'quvchilarning jismoniy va ma'naviy sog'lomligini mustahkamlash;
-yuksak ta'lim sifatini ta'minlaydigan, ochiq, o'quvchilar va ularning ota-onalarini jalb etadigan, ma'naviy-axloqiy tarbiyani o'z ichiga olgan, ta'lim oluvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy sog'ligini himoya qilishni kafolatlaydigan, rivojlanib boruvchi, sog'lom ta'lim muhitini yaratish kabi talablarga javob berishi kerak.
Shunday qilib, boshlang'ich ta'limni tizimli yangilash zamirida maqsad omiliga asoslangan ta'limni innovatsion rivojlantirish jarayoni yotadi, deb ayta olamiz. Maqsad omilini qisqa tarzda: "O'qish nega kerak?" degan savolning javobi bilan tushuntirish mumkin. Bu javob to'liq ko'rinishda Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida (ta'limning yangi asosiy maqsadi, uning vazifalari, o'quv fani bo'yicha natijalarga, o'quvchining shaxsiy natijalariga, rejalashtirilgan natijalarga qo'yiladigan talablar) va fan bo'yicha o'quv dasturlarida bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. -М: Знанийе,1989-80 с.
2. Корнилов В.С. Гуманитарная компонента прикладного математического образования //Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Информатика и информатизация образования. 2006. №7. С.94-99.
- 3.Лаврентев Г.В. Слагайемийе технологии модульного обучений-Барнаул, Изд.Алтайского гос.унта, 1994.-108 с.
4. Махмутов М., Ибрагимов Г.И., Ушаков М.А. Педагогическийе технологии, развитийе мишления учашихся. -Казан: 1993-88 с.
5. Мусаев О.Қ. Компетенциявий ёндашув асосида педагогик қобилятлар комплексини такомиллаштириш: пед. бўй. фал. док. (Phd) дисс. -Тошкент, 2016. -116 б.

